



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 1-avgust

380-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-iyuldagi 432-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 347-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-iyuldagi 432-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyuldagi 347-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-iyuldagi 432-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyuldagi 347-6-0-Q/24-sonli qarori asos va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi 432-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

kichik sanoat zonalari ishtirokchilari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari yosh tadbirkorlik subyektlarining investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarining bajarilishini qabul qilish mexanizmlari;

investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajargan kichik sanoat zonalari ishtirokchilari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari yosh tadbirkorlik subyektlariga berilgan davlat ko‘chmas mulk obyektlari hamda yer uchastkalarini xususiyashtirish tartibi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarda joylashgan davlat mulki obyektlarini xususiyashtirish vakolatini berish;

o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, 2024-yil 1-avgustdan boshlab kichik sanoat zonalari ishtirokchilari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari yosh tadbirkorlik subyektlarining investitsiya va ijtimoiy majburiyatlari bajarilganligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari huzuridagi Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyalar

tomonidan majburiyatlarni bajarish muddati tugagandan so'ng uch oy ichida qabul qilinishi, amalga oshirish muddati 2024-yil 1-avgustga qadar tugagan loyihalar bundan mustasno ekanligi;

Toshkent shahrida joylashgan kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishini qabul qilish hamda davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiylashtirish masalalari bo'yicha 2-ilovaga muvofiq tarkibda Hukumat komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Hukumat komissiyasi) tuzilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyuldagi 347-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Viloyat Kichik, yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalarini boshqarish yagona Direksiyasi (A.Dadaboyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov), Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (O.Akbarov) Namangan shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-sentabrga qadar kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning muammolarini o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha viloyat hokimligiga taklif kiritishlari;

Viloyat Kichik, yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalarini boshqarish yagona Direksiyasi (A.Dadaboyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (B.Matmusayev) manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi 432-son qarori talablari asosida ish tashkil etishlari belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov